



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxe'dov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimuro'dov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Qu'dratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmuro'dovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
Umarova Malika Nematjanovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Рахмонов Джамшид Одил угли	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
Avazbek Jo'rayev	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	207
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	211
Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
Mohichexra Melikovna Mo'minova	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI	233
Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	239
Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	245
Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
Daminov Mirvoxid Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL	255
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI	264
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI	276
Namozov Shahzod Maxmud o'g'li	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN	290
Shokhrukh Ziyavaddinov	
O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI	299
Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	306
Turdiyev Izatulla Ollaqulovich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	312
Xoliqulova Yulduz Panji qizi	



ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNING O'RNI: XORIJ TAJRIBASI	317
Mavlonov Ozod Ulug'bekovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	322
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
BANK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	330
Boltayev Zokirjon Otanazarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	334
Adilova Zohida Ikromjonovna	
MOLIYAVIY AKTIVLAR TARKIBIDAGI DEBITORLIK QARZDORLIKLARINI MHXS TALABLARI ASOSIDA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	339
Umurzakov Dilshodbek Xakimovich	



MOLIYAVIY AKTIVLAR TARKIBIDAGI DEBITORLIK QARZDORLIKLARINI MHXS TALABLARI ASOSIDA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI



Umurzakov Dilshodbek Hakimovich

Namangan davlat texnika universiteti

Buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti

E-mail: umurzakovdilshodxakimovich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy elektr energiyasi ta'minoti korxonalarida debitorlik qarzdorligini boshqarishning konseptual jihatlari MHXS 9-standarti talablari doirasida qayta talqin qilingan. Tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda debitorlik qarzdorligi shunchaki buxgalteriya subyekti emas, balki korxonaning strategik likvidligini belgilovchi dinamik moliyaviy aktiv sifatida tahlil etiladi. Muallif milliy hisob tizimidagi "yuzaga kelgan zarar" modelining samarasizligini asoslab, uning o'rniga "kutilayotgan kredit zararlari" (ECL) modelini elektr ta'minoti sohasining regional xususiyatlaridan kelib chiqib tatbiq etish zarurligini ilgari suradi.

Ilmiy izlanish davomida iste'molchilarni ijtimoiy va iqtisodiy guruhlariga segmentlash asosida shakllantirilgan "zaxiralar matritsasi" metodikasi taklif etilgan. Shuningdek, maqolada elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi ma'lumotlari hamda MHXS algoritmlarini sinxronlashtirish orqali qarzdorlikni raqamli monitoring qilishning mualliflik modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot xulosalari korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda klassik baholash usullaridan prognozlashtirishga asoslangan strategik hisob tizimiga o'tish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: MHXS 9, mualliflik modeli, debitorlik qarzdorligi, ECL modeli, strategik hisob, likvidlik tavakkalchiligi, zaxiralar matritsasi, elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi, segmentlash.

Abstract. This article reinterprets the conceptual aspects of managing accounts receivable in regional electricity supply enterprises within the framework of IFRS 9 requirements. The distinctive feature of the study is that accounts receivable are analyzed not merely as an accounting item but as a dynamic financial asset that determines the strategic liquidity of the enterprise. The author substantiates the inefficiency of the "incurred loss" model in the national accounting system and proposes the implementation of the "Expected Credit Loss (ECL)" model, adapted to the regional characteristics of the electricity supply sector.

During the research, a "reserve matrix" methodology is proposed, based on the segmentation of consumers into social and economic groups. In addition, the article develops a proprietary model for digital monitoring of receivables by synchronizing data from automated electricity metering and control systems with IFRS algorithms. The findings demonstrate the necessity of transitioning from classical valuation methods to a forecast-based strategic accounting system to ensure the financial stability of enterprises.

Key words: IFRS 9, proprietary model, accounts receivable, ECL model, strategic accounting, liquidity risk, reserve matrix, automated electricity metering and control system, segmentation.

Аннотация. В данной статье концептуальные аспекты управления дебиторской задолженностью в региональных предприятиях электроснабжения переосмыслены в рамках требований стандарта МСФО 9. Отличительной особенностью исследования является рассмотрение дебиторской задолженности не только как бухгалтерского объекта, но и как динамического финансового актива, определяющего стратегическую ликвидность предприятия. Автор обосновывает неэффективность модели «понесённых убытков» в национальной системе учёта и предлагает внедрение модели «ожидаемых кредитных потерь» (ECL) с учётом региональных особенностей электроэнергетической отрасли.



В ходе исследования предложена методика «матрицы резервов», основанная на сегментации потребителей по социальным и экономическим группам. Также разработана авторская модель цифрового мониторинга задолженности путём синхронизации данных автоматизированной системы учёта и контроля электроэнергии с алгоритмами МСФО. Полученные результаты подтверждают необходимость перехода от классических методов оценки к стратегической системе учёта, основанной на прогнозировании, для обеспечения финансовой устойчивости предприятий.

Ключевые слова: МСФО 9, авторская модель, дебиторская задолженность, модель ECL, стратегический учёт, риск ликвидности, матрица резервов, автоматизированная система учёта электроэнергии, сегментация.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga (MHXS) muvofiq transformatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Iqtisodiyotning drayver sohalaridan biri bo'lgan energetika tizimida bozor mexanizmlarini joriy etish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlash nafaqat soha barqarorligini, balki mamlakatning xalqaro investitsion jozibadorligini oshirish uchun ham fundamental ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli qarori mamlakatda MHXSga o'tish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi [1].

Hududiy elektr energiyasi ta'minoti korxonalarini faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning moliyaviy aktivlari tarkibida debitorlik qarzdorligi eng katta ulushni egallaydi. Elektr energiyasini ishlab chiqarishdan to yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan zanjirda yuzaga keladigan debitorlik qarzlarning salmog'i korxonaning likvidlilik darajasiga va aylanma mablag'larning aylanuvchanlik tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iste'molchilarning to'lov intizomi pastligi va qarzdorlikni boshqarishning eskirgan usullari soha korxonalarida surunkali moliyaviy taqchillikni yuzaga keltirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, elektr energiyasi tizimini texnik yangilash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga to'sqinlik qiladi.

Amaldagi milliy buxgalteriya hisobi tizimida debitorlik qarzdorligini baholash va uning uchun zaxiralar yaratish tartiblari zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga, xususan MHXS 9 «Moliyaviy instrumentlar» standartiga to'liq muvofiq emas. Milliy tizimda qarzdorlikni baholashda asosan «yuzaga kelgan zarar» modelidan foydalanilgan bo'lsa, MHXS tizimi «kutlayotgan kredit zararlari» (Expected Credit Loss – ECL) modelini qo'llashni talab etadi [2].

Elektr ta'minoti korxonalarida muddati o'tgan qarzdorliklarni haqqoniy baholash, ularni adolatli qiymatda aks ettirish va risklarni oldindan prognoz qilish tizimining mavjud emasligi hisobot ma'lumotlarining real holatdan uzoqlashishiga sabab bo'lmoqda.

Hududiy elektr energiyasi ta'minoti korxonalarining hisob siyosatida debitorlik qarzdorligini tan olish, baholash va tasniflash metodologiyasini MHXS va BHXS talablari asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi imkoniyatlarini hisob jarayonlariga integratsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur tizim iste'mol qilingan energiya haqidagi ma'lumotlarni inson omilisiz, real vaqt rejimida shakllantirish orqali debitorlik qarzlarning haqqoniy baholanishini ta'minlaydi.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimining texnik imkoniyatlaridan foydalangan holda debitorlik qarzlarning «sifat matritsasi»ni yaratish MHXS 9 standarti talablariga muvofiq kutlayotgan kredit zararlari (ECL) aniq prognoz qilish va iste'molchilarni to'lov intizomiga ko'ra segmentlash imkonini beradi. Raqamli monitoring vositalarini hisob tizimiga bunday integratsiya qilinishi nafaqat moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini oshiradi, balki korxonalarining likvidlilik xavfini boshqarishda qaror qabul qilish tezkorligi va samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning investitsion jozibadorligini oshirishda moliyaviy aktivlar, xususan, debitorlik qarzdorligi hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. MHXS 9 «Moliyaviy instrumentlar» standartining amaliyotga joriy etilishi ushbu sohada nazariy va uslubiy qarashlarni tubdan o'zgartirib, an'anaviy buxgalteriya hisobidagi «retrospektiv» yondashuvdan voz kechish hamda istiqbolga yo'naltirilgan «kutlayotgan kredit zararlari» (Expected Credit Loss – ECL) modeliga o'tishni talab etdi. Bu borada jahon va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar debitorlik qarzdorligining iqtisodiy mazmuni va uni baholash metodologiyasini boyitib kelmoqda.



Jahon miqyosidagi fundamental tadqiqotlar mualliflari J. Valen, S. Baginski va M. Bredshou o'z ishlarida debitorlik qarzdorligining moliyaviy hisobotdagi haqqoniyligi investorlarning kapitalni taqsimlash bo'yicha qarorlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab berganlar [7]. Mazkur olimlarning fikricha, aktivning qiymati faqat nominal summa bilan emas, balki undan kelib tushadigan kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymati bilan o'lchanishi lozim. Mualliflar «adolatli qiymat» (fair value) konsepsiyasini debitorlik qarzlarning real iqtisodiy mazmunini ochib beruvchi asosiy instrument sifatida talqin etadilar. Elektr energiyasi ta'minoti kabi ommaviy xizmat ko'rsatish sohalarida iste'molchilarning to'lov qobiliyatidagi keskin tafovutlar ushbu baholash jarayonini yanada murakkablashtiradi va spesifik metodologik yondashuvlarni taqozo etadi.

Rossiyalik olim V. V. Pankov moliyaviy aktivlarni tasniflashda korxonaning «biznes modeli» hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [8]. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, agar xo'jalik yurituvchi subyekti aktivni shartnomaviy pul oqimlarini yig'ish maqsadida saqlab turgan bo'lsa, u amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha baholanishi shart. Pankovning tadqiqotlarida debitorlik qarzlarni baholashda samarali foiz stavkasini qo'llash va vaqt omilini inobatga olish mexanizmi batafsil yoritilgan. Bu hududiy elektr ta'minoti korxonalaridagi uzoq muddatli va muddati o'tgan qarzlarning sof qiymatini aniqlashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Uning fikricha, har qanday moliyaviy aktivning hisobi uning iqtisodiy mohiyatiga muvofiq bo'lishi, buxgalteriya yozuvlari esa faqatgina hujjat ko'rinishini emas, balki risk darajasini ham aks ettirishi lozim.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan B. A. Xasanov va A. A. Xashimovlar O'zbekistonda MHXSga o'tish davrida debitorlik qarzdorligi hisobini takomillashtirish bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borishgan [9]. Ularning tadqiqotlarida milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) va MHXS o'rtasidagi uslubiy nomuvofiqliklar, ayniqsa, shubhali qarzar bo'yicha rezervlar yaratishdagi tafovutlar chuqur tahlil qilingan. Olimlarning fikricha, milliy tizimdagi «yuzaga kelgan zarar» modeli korxonalarining moliyaviy natijalarini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatishga sharoit yaratadi, MHXS 9 doirasidagi ECL modeli esa ehtiyotkorlik tamoyiliga to'liq mos kelib, moliyaviy xatarlarni oldindan boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek, A. K. Ibragimov va Z. N. Qurbanovlarning ilmiy ishlarida energetika va kommunal soha korxonalarida hisob siyosatini MHXS talablariga muvofiq shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Ular hududiy elektr ta'minoti korxonalarining spesifik xususiyatlarini, xususan, aholi va yuridik shaxslarning to'lov intizomi turlicha ekanligini inobatga olib, debitorlik qarzdorligini iste'molchilar toifasi bo'yicha segmentlashni taklif etadilar. Mualliflar har bir segment uchun alohida statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish va zaxiralar matritsasini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv hududiy elektr ta'minoti korxonalarida moliyaviy aktivlar sifatini nazorat qilish va likvidlikni boshqarishda yuqori samara beradi.

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar, jumladan N. M. Mahmudova va soha mutaxassislari raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy aktivlar monitoringini avtomatlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, elektr energiyasi hisobini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlari (ASKUE) debitorlik qarzdorligi to'g'risidagi «katta ma'lumotlar» (Big Data) manbai bo'lib, ularni MHXS 9 modeli matematik algoritmlari bilan integratsiya qilish inson omilini kamaytiradi va zaxiralar miqdorini maksimal darajada aniq hisoblash imkonini beradi.

Biroq, mavjud adabiyotlarning tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotlar umumiy metodologik xarakterga ega bo'lib, 2024–2026-yillardagi yangi iqtisodiy tendensiyalar va tarif siyosatidagi o'zgarishlarning hududiy elektr ta'minoti korxonalarida debitorlik qarzlari sifatiga ta'sirini yetarlicha qamrab olmagan. Xususan, kelajakka yo'naltirilgan (forward-looking) prognoz ma'lumotlarini zaxiralar matritsasiga kiritishning aniq amaliy mexanizmi va uning algoritmi yetarlicha yoritilmagan. Bu esa mazkur maqola doirasida ushbu uslubiy bo'shliqlarni to'ldirish va hududiy elektr ta'minoti korxonalarini uchun xos bo'lgan mualliflik modelini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Umumiy olib qaralganda, debitorlik qarzdorligi hisobini MHXS asosida takomillashtirish nafaqat buxgalteriya va hisobot masalasi, balki korxonaning investitsion jozibadorligini oshiruvchi strategik boshqaruv instrumenti ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishdagi nazariy qarashlarning izchilligi va amaliy takliflarning tizimliliigi milliy energetika sohasini transformatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va MHXS 9 «Moliyaviy instrumentlar» standartining konseptual asoslaridan foydalanildi. Elektr energiyasi ta'minoti korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, debitorlik qarzdorligini baholashda «kutlayotgan kredit zararlari» (ECL) modeli metodologik asos sifatida tanlandi. Ma'lumotlarni yig'ishda elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi ko'rsatkichlari hamda moliyaviy hisobotlar retrospektiv tahlil qilindi. Iste'molchilarni segmentlash orqali «zaxiralar matritsasi»ni shakllantirish usuli qo'llanildi. Ushbu metodologiya milliy hisob tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va xalqaro standartlarga o'tishning eng samarali yo'llarini ilmiy asoslab berish imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yil va 2026-yilning birinchi choragi yakunlari bo'yicha hududiy elektr energiyasi ta'minoti korxonalari (HETK) faoliyatida moliyaviy aktivlar, xususan, debitorlik qarzdorligi MHXS 9 «Moliyaviy instrumentlar» standarti asosida baholash tizimi yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Bu davrda elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimining to'liq integratsiya qilinishi hamda tarif islohotlari debitorlik qarzlarning haqiqiy likvidlik darajasini aniqlash imkonini berdi.

MHXS 9 standartining asosiy talabi bo'lgan «kutilayotgan kredit zararlari» (ECL) modelini qo'llash maqsadida 2025-yil yakunlari va 2026-yil uchun prognoz qilinayotgan debitorlik qarzdorligi tarkibi tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. 2025–2026 yillar uchun debitorlik qarzdorligining iste'molchilar kesimida tahlili (shartli prognoz ma'lumotlari asosida)

Iste'molchilar toifasi	2025 yil (mlrd. so'm)	2026 yil (prognoz, mlrd. so'm)	O'sish sur'ati (%)
Aholi (Jismoniy shaxslar)	1 420,0	1 580,0	+11.2%
Sanoat va tadbirkorlik subyektlari	980,0	1 120,0	+14.3%
Byudjet tashkilotlari	410,0	390,0	-4.8%
JAMI	2 810,0	3 090,0	+9.9%

Tahlil shuni ko'rsatadiki, 2026-yilga kelib aholi va tadbirkorlik subyektlarining qarzdorligi o'sishi kutilmoqda. Bu, bir tomondan, elektr energiyasi iste'molining ortishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, tariflarning erkinlashtirilishi natijasida hisob-kitoblar hajmining kengayishi bilan bog'liq. Biroq, MHXS 9 talablariga ko'ra, bunday o'sish kredit tavakkalchiligining ham ortishini anglatadi.

Keyingi bosqichda 2025-yil yakunlari bo'yicha «zaxiralar matritsasi»ni qo'llagan holda aktivlarning qadrsizlanishi baholandi (2-jadval).

2-jadval. MHXS 9 bo'yicha debitorlik qarzlari uchun zaxiralarni hisoblash (2025 yil holatiga, shartli prognoz ma'lumotlari asosida)

Qarzdorlik muddati	Qarz summasi (mlrd. so'm)	Kutilayotgan yo'qotish foizi (ECL %)	Zaxira summasi (mlrd. so'm)
0–30 kun (Joriy)	1 550,0	1.2%	18,6
31–90 kun	580,0	8.5%	49,3
91–180 kun	420,0	22.0%	92,4
181 kundan yuqori	260,0	65.0%	169,0
JAMI	2 810,0	11.7%	329,3

2025-yil ma'lumotlari asosida hisoblangan 329,3 mlrd so'mlik zaxira miqdori korxonaning aktivlarini adolatli qiymatda aks ettirish uchun zarur bo'lgan «moliyaviy bufer» hisoblanadi. Bu ko'rsatkich milliy tizimdagi an'anaviy baholashdan farqli ravishda korxonaga kelajakdagi to'lov qobiliyatsizligi xavfini oldindan moliyaviy natijalarda aks ettirish imkonini beradi.

Tadqiqotning eng muhim natijasi MHXSga o'tishning korxonaga moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholashdir (3-jadval).

3-jadval. 2025-2026-yillarda MHXS 9 ni joriy etishning moliyaviy natijalarga ta'siri (shartli prognoz ma'lumotlari asosida)

Ko'rsatkichlar	2025-yil (BHMS bo'yicha)	2025-yil (MHXS bo'yicha)	2026-yil (Prognoz MHXS)
Debitorlik qarzining sof qiymati	2 740,0	2 480,7	2 710,5
Shubhali qarzlarni uchun xarajatlar	70,0	329,3	380,0
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	1.38	1.15	1.18
Qarzlarni aylanish muddati (kun)	92	81	78



2025 va 2026-yillar uchun olingan tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, MHXS 9 standartini qo'llash natijasida debitorlik qarzdorligining aylanish muddati 92 kundan 78 kungacha qisqarishi prognoz qilinmoqda. Bu ASKUE tizimi orqali to'lov intizomining kuchayishi va «Zaxiralar matritsasi» orqali muddati o'tgan qarzlilar bilan ishlash samaradorligi oshganidan dalolat beradi. Garchi zaxira xarajatlarning ortishi hisobiga joriy foyda kamaygan bo'lsa-da, korxonaning investitsion jozibadorligi va moliyaviy hisobotlarining shaffofligi xalqaro standartlar darajasiga ko'tariladi.

Demak, 2025–2026 yillarda HETKlarda moliyaviy aktivlar hisobini MHXS asosida yuritish tizimining joriy etilishi debitorlik qarzlilarini «aktiv» sifatida emas, balki «risk manbai» sifatida boshqarish strategiyasiga o'tish imkonini berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqot hamda hududiy elektr energiyasi ta'minoti korxonalarining (HETK) 2024–2026 yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili asosida shuni xulosa qilish mumkin, debitorlik qarzdorligini boshqarish va uning hisobini MHXS talablari asosida takomillashtirish korxonalarining strategik moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Milliy buxgalteriya hisobi tizimidan xalqaro standartlarga o'tish shunchaki texnik jarayon emas, balki aktivlar qiymatini real vaqt rejimida hamda kelajakdagi risklarni inobatga olgan holda baholash imkonini beruvchi yangi boshqaruv yondashuvidir.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, MHXS 9 «Moliyaviy instrumentlar» standarti doirasida «kutlayotgan kredit zararlari» (ECL) modelining joriy etilishi HETK moliyaviy hisobotlaridagi debitorlik qarzdorligi qiymatini taxminan 12–15 foizga realroq aks ettirish (korreksiya qilish) imkonini beradi. Bu esa korxonalarining aktivlarining ortiqcha baholanishini kamaytirib, investorlar uchun shaffof moliyaviy axborot shakllanishiga xizmat qiladi. 2025–2026 yillar uchun ishlab chiqilgan prognoz ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi hamda raqamli monitoring vositalarining MHXS algoritmlari bilan integratsiyasi debitorlik qarzlilarining aylanish muddatini o'rtacha 10–14 kunga qisqartirishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, sohada debitorlik qarzdorligini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Hisob siyosatida «Zaxiralar matritsasi»ni standartlashtirish: Hududiy elektr ta'minoti korxonalarini hisob siyosatida iste'molchilarni segmentlash (aholi, yuridik va byudjet tashkilotlari) asosida shakllantirilgan individual zaxira stavkalarini joriy etishi maqsadga muvofiqdir. Bunda so'nggi 36 oylik tarixiy ma'lumotlar hamda makroiqtisodiy prognozlar (inflyatsiya, tariflar o'zgarishi) hisobga olinadi.

2. ASKUE va ERP tizimlarini sinxronlashtirish: Debitorlik qarzdorligini tan olish va uning qadrsizlanishini baholash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun elektr energiyasi hisobining raqamli tizimi ma'lumotlarini MHXS 9 algoritmlari asosida ishlovchi buxgalteriya dasturlari bilan integratsiya qilish zarur. Bu inson omilini kamaytiradi va ma'lumotlar ishonchliligini oshiradi.

3. Kelajakka yo'naltirilgan (forward-looking) ma'lumotlar mexanizmini joriy etish: Zaxiralarni hisoblashda faqat tarixiy yo'qotishlar emas, balki kelajakdagi iqtisodiy kutilmalarni ham inobatga oluvchi tuzatish koeffitsiyentlari tizimini ishlab chiqish lozim. Bu yondashuv yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni oldindan baholash imkonini beradi.

4. Kadrlar malakasini oshirish: MHXS 9 standartining murakkab hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun korxonalarda buxgalterlar bilan bir qatorda risk-menejerlar va ma'lumotlar tahlilchilari (data scientists)dan iborat kompleks jamoalar shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi hududiy elektr energiyasi ta'minoti korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kredit reytingini yaxshilash hamda energetika tizimining umumiy iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Wahlen J.M., Baginski S.P., Bradshaw M. Financial Reporting, Financial Statement Analysis and Valuation. – Boston: Cengage Learning, 2023. – 1184 p.
2. Pankov V.V. Mejdunarodnye standarty finansovoy otchetnosti: uchebnik. – M.: Magistr, 2022. – 432 s.
3. Ibragimov A.K., Qurbanov Z.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: darslik. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2021. – 544 b.
4. Wahlen J.M., Baginski S.P., Bradshaw M. Financial Reporting, Financial Statement Analysis and Valuation: A Strategic Perspective. – Boston: Cengage Learning, 2023. – 1184 p.
5. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Moliyaviy hisob va hisobot (MHXS asosida): darslik. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2022. – 412 b.
6. Sirojiddinov I.K., Isomuhamedov A.B. (2022). Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства.
7. Isomuhamedov A. (2023). Organization of Accounting in Structures of a Small Business in the Construction Field. International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences, 17(12), 27–32.



8. Boxodir o'g'li I.A. (2025). Organization of Accounting for Expenses and Income in Small Businesses. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(3), 1053–1059.
9. Boxodir o'g'li I.A. (2025, December). Xarajatlar va daromadlar hisobi tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. In: *Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus*, 1(1), 990–992.
10. Boxodir o'g'li I.A. (2023). Accounting and Analysis of Costs as a Basis of Budgeting. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*, 12(04), 9–12.
11. Abdulazizovich X.U.B., Murodillayevich N.J. (2026). O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlari shakllanishining amaldagi holati tahlili. *American Journal of Business Management*, 4(3), 43–51.
12. Xolmirzayev U.B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. *Green Economy and Development*, 1(11), 664441.
13. Isomukhamedov A., Kholmirezayev U., Tursunov U., Ergashev I., Aliyeva G., Karimova S., Nadirov U. (2025). Using AI Enterprise Expenses Prediction and Budgeting Mechanisms. *Reliability: Theory & Applications*, 20(SI 10 (88)), 365–371.
14. Abdulazizovich X.U.B. (2025). Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142–146.
15. Sobirjon o'g'li J.E., Abdulazizovich X.U.B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 8(4), 419–423.
16. Abdulazizovich X.U.B. (2025). Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142–146.
17. Abdulazizovich K.U. (2023). Positive aspects of the cash method in small enterprises under unusual circumstances. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*, 12(11), 38–47.
18. Xolmirzayev U.B., Ubaydullayev T. O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik sohasida me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish. *Green Economy and Development*, 3(10), 667114.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>